



## O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDAGI MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR TAHLILI

**Sindarov Fazliddin Qaxramonovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi  
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari  
va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi  
ORCID: 0009-0003-7254-4584  
[fazliddinst2020@gmail.com](mailto:fazliddinst2020@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola O'zbekiston bank sektorining moliyaviy tahliliga bag'ishlanib, bank sektorining joriy holati, muammolari va kamchiliklarini o'rganilgan. O'zbekistondagi banklar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi davlat va xususiy banklar misolida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda yirik davlat banklarining bozordagi hukmron mavqeyi, aktivlar va majburiyatlar ulushi hamda rentabellik ko'rsatkichlari o'rganilib, sektor rivojlanishidagi asosiy muammolar va kamchiliklar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** bank, moliyaviy muammolar, rentabellik koeffitsienti, davlat banklari, muammoli kreditlar.

## АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ И НЕДОСТАТКОВ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА

**Синдаров Фазлиддин Кахарамонович**

Научно-исследовательский центр «Научные основы и  
Проблемы развития экономики Узбекистана» при  
Ташкентском государственном экономическом университете

**Аннотация.** Настоящая статья посвящена финансовому анализу банковского сектора Республики Узбекистан, в которой рассматривается текущее состояние сектора, выявляются его проблемы и недостатки. Экономическая эффективность деятельности банков в Узбекистане анализируется на примере государственных и частных кредитных организаций. В рамках исследования изучены доминирующее положение крупных государственных банков на рынке, их доля в активах и обязательствах, а также показатели рентабельности. Проведен анализ основных проблем и недостатков, препятствующих развитию банковского сектора.

**Ключевые слова:** банк, финансовые проблемы, коэффициент рентабельности, государственные банки, проблемные кредиты.

## ANALYSIS OF PROBLEMS AND SHORTCOMINGS IN UZBEKISTAN'S BANKING SECTOR

**Sindarov Fazliddin Qaxramonovich**

Scientific research center "Scientific foundations and problems  
of the development of the economy of Uzbekistan" under  
Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This article is dedicated to the financial analysis of Uzbekistan's banking sector, examining its current state, identifying challenges and shortcomings. The economic efficiency of banks in Uzbekistan is analyzed using examples of both state-owned and private financial institutions. The study explores the dominant market position of major state-owned banks, their share of assets and liabilities, as well as profitability indicators. Key issues and deficiencies hindering the development of the banking sector are also analyzed.

**Key words:** bank, financial problems, profitability ratio, state-owned banks, problem loans.

## Kirish.

Hozirgi davrda global bank tizimi moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va xalqaro kapital oqimini optimallashtirishda markaziy o'rin tutadi. Jahon iqtisodiyotidagi murakkab jarayonlar, jumladan, pandemiyadan keyingi tiklanish, raqamli transformatsiya va moliyaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi bank sektorini chuqur islohotlar yo'liga boshlamoqda. Bunda moliyaviy vositachilikning rivojlanishi, likvidlikni oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

O'zbekistonda bank tizimi iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida mamlakat bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, bank sektorida davlat ulushining yuqoriligi, xususiylashtirishning sustligi, raqamli texnologiyalarning yetarli darajada qo'llanilmasligi va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyaning cheklanganligi kabi muammolar hanuz dolzarbdir.

## Adabiyotlar sharhi.

Moliya bozori va bank sektorining muammolarini o'rganish jahonda ham, O'zbekistonda ham muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ushbu masala bo'yicha ko'plab olimlar nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan,

Thorsten Beck, Asli Demirgüç-Kunt va Ross Levine (2018) bank tizimi tuzilmasi va moliyaviy institutsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilingan. Bank sektorida davlatning ishtiroki past bo'lgan mamlakatlar moliyaviy barqarorlikka erishish imkoniyatiga ega ekanligi ko'rsatilgan

Burxanov va Xudoyqulovlar (2023) "O'zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvining dolzarb masalalari" mavzusidagi maqolasida O'zbekiston moliya bozori, xususan, bank sektoridagi muammolar sifatida bank tizimida raqobat muhitining cheklanganligi, tijorat banklari va moliya institutlari o'rtasidagi raqobat sustligi sektorda innovatsion rivojlanishni cheklab kelayotganligi ta'kidlangan.

Meliyev (2024) o'z tadqiqotida, O'zbekiston tijorat banklarida kredit portfeli sifati va risklarni boshqarish darajasi yetarlicha rivojlanmagan, O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanmaganligi sababli banklarning investitsion imkoniyatlari cheklanganligi bank likvidlikni qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish orqali ta'minlash imkoniyatlarini keskin pasaytirishi ta'kidlangan.

Sattarov (2016) tijorat banklarining likvidligi va kapital yetarliligiga oid normativ talablarni takomillashtirish, jalb qilinadigan depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini qayta moliyalashtirish stavkasi va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan uzviy bog'lash hamda tijorat banklari likvidligiga doir me'yor va talablarni hisoblash metodologiyasini takomillashtirish orqali O'zbekiston Respublikasi bank tizimining umumiy barqarorligini oshirish mumkin.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bank sektoridagi asosiy muammolar xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Davlat ulushining yuqoriligi, raqobatning sustligi, muammoli kreditlarning ko'pligi va xalqaro integratsiya cheklovlari iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qilmoqda. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari esa xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga yordam berishi mumkin.

## Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada yozish jarayonida moliya sektoridagi mavjud muammolarni aniqlashda moliyaviy tahlil, statistik va taqqoslama tahlil, shuningdek, induksiya, deduksiya, sintez kabi bir qator usullardan foydalanildi. O'zbekiston banklarining moliyaviy hisoboti (2023) Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portali, Markaziy bankning ochiq ma'lumotlaridan foydalanilgan holda ushbu maqola yozildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida moliya bozori muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mamlakat iqtisodiyotiga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishda, korxonalar va tashkilotlarning kapitalga bo'lgan talabini qondirishda, hamda aholining moliyaviy ehtiyojlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Moliya bozorining barcha sektorlarini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni oshirish va iqtisodiy o'sishga erishishda asosiy sharti hisoblanadi. Mustaqillikka erishilgan davrdan to bugungi kungacha markazdan rejalashtirilgan iqtisodiy tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida moliya bozori sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishga bo'lsa-da, sohada haligacha o'z yechimini kutayotgan muammolar va kamchiliklarni yetarlicha topish mumkin. Bularga moliya bozori infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi, likvidlikning pastligi, tartibga soluvchi organlarning samaradorligi pastligi, global moliya bozorlariga integratsiyalashish darajasining pastligi, yirik moliyaviy kompaniyalarda davlat ulishining yuqoriligi, aholining moliyaviy savodxonligi yetishmasligi, yuqori inflyatsiya, dollarlashuvning yuqoriligi, moliyaviy resurslarning kamligi va davlat aralashuvining yuqori darajasini kabi bir qator muammo va kamchiliklarni keltirishimiz mumkin. Bu muammo va kamchiliklarga O'zbekiston iqtisodiyotini iqtisodiyotini barqaror va inklyuziv o'sishga to'stinlik qiluvchi asosiy salbiy omillar sifatida qarash mumkin.

Loyihamizning ushbu paragrafida O'zbekiston moliya bozorining sektorlar (bank, sug'urta, kapital bozori, valyuta bozori) kesimidagi joriy holati, uning muammolari va mavjud kamchiliklari tahlil qilinadi.

Bank sektori O'zbekistonda moliya bozorining eng yirik va serdaromad sektori hisoblanadi. Shuning uchun ham moliya bozoridagi eng ko'zga ko'rinadigan ko'pchilikka ma'lum bo'lgan va iqtisodiyotga bevosita to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan muammolar aynan mana shu sektorda mavjud. Markaziy bank saytidagi ma'lumotga ko'ra, 2024-yil noyabr holatiga bo'yicha O'zbekistonda jami 36 ta bank mavjud bo'lib, ularning 9 tasi davlat, 27 tasi xususiy bank hisoblanadi.


Covid-19 pandemiyasidan keyingi davrda yuridik va jismoniy shaxslarning banklarning raqamli xizmatlariga bo'lgan ehtiyoji ortishi ko'plab banklarning bank raqamli moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishiga undashi bilan bir qatorda, TBC, Anorbank, Uzumbank, Smartbank kabi 100% raqamli banklarni paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, o'sib borayotgan serdaromad O'zbekiston moliya bozoriga Tenge Bank, Ziraat Bank, Saderat Bank va Yevroosiyo bank kabi yangi banklar 100% xorijiy kapital asosida tashkil qilindi. Bundan tashqari, davlat mulkini xususiy lashtirish doirasida "Ipotekabank" AJning 75% aksiyasi Vengriyaning OTP bankiga sotildi. Xorijiy kapital ishtirokidagi banklar qatorida KDB bank (86.32% Koreya taraqqiyot bankiga tegishli) va Hamkorbankni (39.2% bir-nechta xorijiy kompaniyaga tegishli) misol qilib keltirishimiz mumkin.

O'zbekiston bank sektoridagi muammolar haqida so'z yuritilganda eng katta va boshqa muammolarning kelib chiqishining asl sababi sifatida yirik banklarning asosiy yoki to'liq ta'sischi sifatida davlatning ishtirokini yuqoriligini keltirishimiz mumkin.

Bugungi kunda 9 ta eng yirik bankning asosiy ta'sischi davlat hisoblaning, bu banklarning bank sektori bozoridagi umumiy daromadga ulushi 2023-yilda 61.5% ni, qolgan 27 ta xususiy banklarning ulushi esa 38.5% ni tashkil qilgan. Lekin davlat banklarining bozordagi sof foydada ulushi jami 37.86%, xususiy banklarniki esa 62.14% ni tashkil qilmoqda. Bu raqamlarning o'ziyoq davlat banklarining samarasiz ishlayotganligining bir belgisi hisoblanadi.

1-rasmda 2023-yil yakuni bo'yicha davlat va xususiy banklarning bank sektoridagi daromadlar ulushi berilgan. Unga ko'ra davlatga tegishli bo'lgan 5 ta bank (Milliy bank, Agrobank, SQB, Asaka va Xalq bank) bank sektoridagi jami daromadning 52.5% ga, eng yirik xususiy banklar Kapitalbank, Ipotekabank va Hamkorbanklar esa bozordagi 23.7% daromadga egalik qilmoqda. Demak, bundan xulosa qilishimiz mumkinki, davlat bank sektoridagi asosiy ishtirokchi va yuqorida sanab o'tgan 3 ta xususiy bankdan tashqi boshqa xususiy banklar juda

kichik kapitalga egalik qilganligi uchun yirik banklarga yaqin yillarda raqobat qilolmaydi. Raqobat yo'q joyda rivojlanish ham past bo'ladi.



**1-rasm. Davlat va xususiy banklarning O'zbekiston bank bozorida umumiy daromad va sof foydadagi ulushi, %**


*Manba: <https://new.openinfo.uz/home> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Shuningdek, xususiy banklarning barchasida bankning bozordagi daromaddagi ulushiga nisbatan sof foydadagi ulushi bir necha barobar yuqori. Ayniqsa, "Ipakyo'li", "Orient Finance", "Trastbank" va "KDBBank" bu ko'rsatgich kamida 3 barobarni tashkil qiladi. Davlat banklarida "Aloqabank" dan tashqi boshqa banklarda bu holatni teskarisini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda davlat banklarining soni xususiy banklarning sonidan 3 barobar ko'p bo'lsa-da, ularning aktivlari jami bank aktivlarining 67.79%, majburiyatlari esa undanda yuqori bo'lib, bu ko'rsatgich 72.02% ni tashkil etadi. Bu raqamlar O'zbekiston bank bozorida davlat banklarida tasarrufida juda katta aktivlar to'plangani bildirib, xususiy banklar bu borada yaqin yillarda raqobatlasholmasligidan dalolat berib turibdi.

Mazkur rasm-2 da davlat va xususiy banklarning asosiy 9 ta ko'rsatgichi tahlil qilingan. Yuqorida ular o'rtasida aktivlar, majburiyatlar, daromad va foyda qanday taqsimlanganini ko'rib o'tdik. Banklar o'rtasidagi foizli va foizsiz daromadlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, davlat banklarida foizli daromadlar, xususiy banklarda foizsiz daromadlar ustunlik qilishini ko'rishimiz mumkin. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, xususiy banklarning moliyaviy resurslari davlat banklarinikiga nisbatan cheklanganligi uchun ular bankning kredit operatsiyalariga bog'liq bo'lmagan boshqa xizmatlarini rivojlantirish hisobiga foydani maksimallashtirishga intilmoqda. Ayniqsa, so'ngi yillarda xususiy banklar masofaviy raqamli bank xizmatlaridan olayotgan daromadi bir necha barobarga oshirishga erishdi. Masofaviy xizmatlarni rivojlantirishi xususiy banklarga bir qator xarajatlarni ham qisqartirish imkoniyatini berib, bir vaqtning o'zida minglab bank mijozlariga xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratdi. Bu esa o'z navbatida xususiy banklarga bank sektoridagi umumiy foydaning 62.14% ga egalik qilishiga erishmoqda. Davlat banklarida moliyaviy resurslarning yirikligi sababli kredit portfelidagi ulushi 69.45% tashkil qilmoqda. Shundan bo'lsa-da, xususiy banklar depozit jalb qilish bo'yicha davlat banklariga yetarlicha raqobat qilmoqda. Depozit jalb qilish bo'yicha xususiy banklar davlat banklariga nisbatan 1.88% orqada xalos. O'z navbatida kreditlarning

katta qismi davlat banklariga to'g'ri kelgani uchun muammoli kreditlarning ham aksariyat qismi ularga tegishli bo'lib, bu ko'rsatgich 67.81% ga teng.




**2-rasm. Davlat va xususiy banklarning ba'zi asosiy ko'rsatgichlari taqqoslama grafigi**

*Manba: <https://new.openinfo.uz/home> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Bank sektoridagi yirik banklarning ta'sischi davlat bo'lganligi uchun bank uchun rentabelligi past bo'lgan turli "Har bir oila — tadbirkor", "Yoshlar -Kelajagimiz" dasturlari, shuningdek, hududlarni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab dasturlar, hunarmandlarni, qishloq joylashda yashovchi aholini tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun ishlab chiqilgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni moliyalashtiradi. Bu esa bu banklarning foydasini minimallashtirib, muammoli kreditlar hajmini ortishiga olib kelmoqda. Bunday loyihalarni moliyalashtirishda past foizli, ko'pincha 7 % yoki Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida kredit ajratiladi. Bu loyihalarni moliyaviy resurslarni Iqtisodiyot va moliya vazirligi ajratadi va foizlarni bir qismini bankka to'lab berish vazifalini ham oladi. Shunday bo'lsa-da kam daromadli aholini kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanib ularning daromadini oshirishga qaratilgan bu dasturlar yordamida ajratilayotgan imtiyozli kreditlarning aksariyat qismi samarasiz va muammoli bo'lib qolmoqda. Ayniqsa bu holatlarni qishloq hududlarida chorvachilik, parrandachilik, issiqxona tashkil etish yo'nalishlarida ko'rishimiz mumkin.

3-rasmda O'zbekistonda davlat va xususiy banklarning sof foyda marjasi berilgan bo'lib, unda ko'ra barcha 36 ta bankning sof foyda marjasi o'rtacha 15.6% teng bo'lib, shundan 9 ta davlat bankining sof foyda marjasi 5.99% ga, xususiy banklarning sof foyda marjasi o'rtacha 22.89 %, teng bo'lgan. Rentabellik o'lchovining boshqa ko'rsatgichlari bo'lgan Aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatgichi davlat va xususiy banklarga mos ravishda 1.08% va 4.37%, xususiy kapital rentabelligi (ROE) esa 7.36% va 16.79% teng. Bu yerda agar samaradorlik ko'rsatgichi sifatida aktivlar rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sof foyda marjasini olsak, xususiy banklarning samaradorligi davlat banklarini samaradorligiga nisbatan o'rtacha 3-3.5 barobar yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Alohida banklarni oladigan bo'lsak, xususiy kapital rentabelligi bo'yicha davlat banklari ichidan Aloqabank-22.99%, xususiy banklardan Kapital bank – 38.56%, eng yomon ko'rsatgich Mikrokredit bank-0.09% ga tegishli. Aktivlar rentabelligi bo'yicha ham eng salbiy ko'rsatgich Mikrokreditbankka tegishli bo'lib, bu ko'rsatgich – 0.02% ga teng. Sof foyda marjasi bo'yicha eng yaxshi ko'rsatgich xususiy banklardan Ipakyo'li banki – 54.68%, davlat banklaridan Aloqabank-17.91% bo'lsa eng yomon ko'rsatgich yana Mikrokreditbankka tegishli – 0.13%. Bu raqamlardan O'zbekiston bank sektoridagi likvidlilik muammosini ham ko'rishimiz mumkin. Banklarning samarali ishlashi uchun ularning moliyaviy barqarorligiga ham alohida e'tibor berish zarur.





**3-rasm. Davlat va xususiy banklarning bank sektoridagi daromad, sof foyda ulushi va sof foyda markasi, %**

*Manba: <https://new.openinfo.uz/home> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020 — yildagi “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” PF-5992-sonli farmonida davlat ulushi mavjud bo‘lgan “Poytaxt bank” AJ, “Ipoteka bank” ATIB, “Asaka” ATB, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Aloqabank” ATB va “Asia Alliance Bank” ATB larning xususiylashtirish nazarda turilgan edi. Ushbu farmonga asosan “Ipoteka bank”, “Asakabank” va “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xorijiy investorlarga sotilishi kerak edi. Bular ichidan faqat bitta bank “Ipoteka bank” ATIBning 75% aksiyasi Vengriyaning OTP bankiga sotildi. 2024-yilda “O‘zsanoatqurilishbank” xususiylashtirish kerak edi. Ammo 2024-yilning noyabr oyigacha xususiylashtirish jarayoni amalga oshgani yo‘q.

**1-jadval**

**PF-5992-sonli farmonga asosan bank tizimini isloh qilish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar va uning 01.10.2024 yildagi holati (Farmon, 2020)**

T/r	Ko‘rsatkichlar nomlanishi	Maqsad:			Amaldagi holat
		2021	2023	2025	
1.	Xususiy (davlat ulushi ishtirok etmagan) banklar aktivlarining bank sektori aktivlari umumiy hajmidagi ulushi	17 -20 %	35 - 40%	60 %	33%
2.	Banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlarining majburiyatlar umumiy hajmidagi ulushi	30 -40 %	60 %	70 %	32.67%
3.	Depozitlarning banklar majburiyatlariga nisbati	41 - 45%	45-50 %	50 - 60 %	45.57%
4.	Bank aktivlarining YAIMga nisbati	53-54 %	54-55 %	55 % dan ko‘p	54-56%
5.	Bank depozitlarining YAIMga nisbati	19- 21%	22 - 24%	25-27%	18-21%

Mazkur 1-jadvalda PF-5992-sonli farmon asosida amalga oshirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar va uning 01.10.2024 yildagi holati berilgan bo‘lib, bank aktivlarining YAIMga nisbati bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichidan boshqa ko‘rsatkichlarga erishilmagan. Strategiya bo‘yicha eng salbiy ko‘rsatkich xususiylashtirish jarayonlari bilan bog‘liq.

O'zbekiston banklarining yana bir muammoli jihati sifatida global moliya bozorlaridan moliyaviy resurslarni jalb qilib qilishdagi integratsion jarayonlardagi sust ishtirokini keltirishimiz mumkin. Bugungi kungacha ko'plab banklar S&P, Fitch va Moody's kabi xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikda bankning reytingini baholatayotgan bo'lsada, ularning reytingi asosan "BB-" darajada baholanmoqda. "BB-" reyting darajasi spekulativ daraja bo'lib, odatda investitsion kompaniyalar bunday kompaniyalarga investitsiya bitirishga moyil bo'lmaydi.

2-jadval


**Milliy kompaniyalarining xalqaro fond birjasida joylashtirgan yevroobligatsiyalari**

Emitentlar nomi	Hajmi	Kupon stavkasi	Muddati	Chiqarilgan sana	So'ndirish muddati	Obligatsiya reytingi, 03.11.2024 sanaga ko'ra (Fitch)
"O'z sanoatqurilishbank" ATB	\$300	5.75%	5 yil	Noyabr 2019	Noyabr, 2024	BB-
"O'zmilliybank" AJ	\$300	4.85%	5 yil	Oktyabr, 2020	Oktyabr, 2025	BB-
	\$300	8.5%	5 yil	Iyul, 2024	Iyul, 2029	BB-
	1.4 trln so'm	19.875%	3 yil	Iyul, 2024	Iyul, 2027	BB-
"Ipoteka-bank" ATIB	\$300	5.625%	5 yil	Noyabr, 2020	Noyabr, 2025	BB-
	785 mlrd so'm	16%	3 yil	Aprel, 2021	Aprel, 2024	BB-
	1.4 trln so'm	20.5%	3 yil	Aprel, 2024	Aprel, 2027	BB-

*Manba:* ushbu jadval muallif tomonidan o'rganilgan materiallar asosida tayyorlandi.

Ko'plab banklar xalqaro agentliklardan o'zining reytingini baholatgan bo'lsada, 2019-2024-yillar davomidan "O'z sanoatqurilishbank" ATB, "O'zmilliybank" AJ va "Ipoteka-bank" ATIBlargina Global moliya bozorlaridan bank qimmatli qog'ozlarini sotish orqali moliyaviy resurs jalb qildi.

Raqamli texnologiyalar asrida bank tizimini raqamlashtirish dolzarb ahamiyatda ega. Bugungi kunda ko'plab banklar bank ilovalari orqali mijozlarga xizmat ko'rsatmoqda. Bank ilovalarida jismoniy shaxslar indentifikatsiyadan o'tish orqali ko'plab davlat va xususiy xizmatlarga to'lov qilishidan tashqari qisqa vaqt ichida 100 mln so'mgacha kredit olish, milliy va xorijiy valyutada depozit qo'yish, valyutalarni konvertatsiya qilish va P2P o'tkazmalarini qisqa vaqtda amalga oshirish imkoniyatiga ega. Bu birinchidan, bank uchun ham mijoz uchun ham vaqtni tejaydi, ikkinchidan, bank ilovalari orqali qisqa vaqtda minglab mijozlarga xizmat ko'rsatish mumkin va bu bank foydasini oshishiga olib keladi, uchinchidan, bank va mijoz uchun ortiqcha xarajatlarni tejashga imkon beradi. Biroq shunda bo'lsa-da, bank ilovalarining asosiy foydalanuvchilari jismoniy shaxslar hisoblanadi, yuridik shaxslar uchun masofaviy xizmatlar ko'rsatish darajasi hali ham muammoli hisoblanadi. Banklarning raqamli transformatsiya muammolari o'rganishda ularning fin-texnologiyalardan foydalanish darajasini o'rganib tahlil qilish zarur. O'zbekistonda bugungi kunda 36 ta bank faoliyat yuritayotgan bo'lsa, shularni 12 ta 2016-2024-yillar oralig'ida tashkil etilgan bo'lib, Anorbank, TBC, Uzumbank, Hayotbank kabi banklar 100% raqamli bank sifatida tashkil qilingan va ularning xizmatlari faqat masafaviy amalga oshiriladi.



#### 4-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 01.09.2024 holatiga ko'ra

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari asosida muallif tomonida tayyorlandi.

Mazkur **4-rasm** da yuridik va jismoniy shaxslarning bank masafaviy xizmatlaridan foydalanish statistikasi berilgan. Unga ko'ra, bank masafaviy xizmatlaridan foydalangan yuridik shaxslarning jami foydalanuvchilarga nisbati - 3.08% tashkil qilmoqda. Shuningdek, masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning yuridik shaxslarning - 54.71% davlat banklari hissasiga, 45.29% xususiy banklar hissasiga, jismoniy shaxslarning - 51.29% davlat, 49.71% xususiy banklar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Banklarni raqamli transformatsiya o'tish jarayonida masafaviy xizmatlar bo'yicha davlat va xususiy banklar o'rtasidagi raqobat deyarli tenglikni ko'rsatmoqda.

Shuningdek, TBC, Uzumbank va Hayotbankning bu boradagi statistikasiga etibor beradigan bo'lsak, ular faqat jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatadi.

Bank tizimiga raqamli texnologiyalarning transformatsiya qilish qimmat bo'lsa-da, bu provardida, birinchidan, banklarning sof foyda marjasini oshishiga olib keladi, ikkinchidan, kibirxavfsizlik uchun ham juda ahamiyati yuqori.

#### Xulosa va takliflar.

O'zbekiston moliya bozorida bank sektorining ulushi juda yuqori

Tahlillarga ko'ra, davlat banklari sektorining asosiy ishtirokchisi bo'lib, aktivlar va majburiyatlarning aksariyat qismi ular hissasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, ushbu banklarning iqtisodiy samaradorligi past bo'lib, ular tomonidan ijtimoiy loyihalarga ajratilgan mablag'lar muammoli kreditlarga aylanish darajasini oshirmoqda. Xususiy banklar esa raqamli xizmatlarni rivojlantirish orqali samaradorligini oshirmoqda, ammo ularning iqtisodiyotdagi hissasi hali ham past bo'lib qolmoqda.

Bank sektoridagi raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida davlat va xususiy banklar o'rtasida raqobat kuzatilmoqda. Xususiy banklar innovatsion xizmatlar orqali mijozlar bazasini kengaytirayotgan bo'lsa-da, davlat banklari bu borada yetarlicha tashabbus ko'rsatmayapti. Xalqaro moliya bozorlarida banklarning reytinglari pastligi va moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarining cheklanganligi bank tizimini jahon standartlariga moslashtirishda to'siq bo'lib turibdi.

Fikrimizcha, bank tizimini ishlash mexanizmini yaxshilash va yuqori sifatli moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali moliya bozoridagi daromadlarini oshirish uchun quydagilarni amalga oshirish zarur:



- Davlat ulushini kamaytirish va xususiylashtirishni tezlashtirish;
- Raqobatbardosh bank tizimini yaratish;
- Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;
- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;
- Raqamli transformatsiyani rivojlantirish;

O'zbekiston bank sektori mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynab, innovatsiyalar va raqobatbardoshlikni oshirish orqali yanada barqarorlikka erishishi zarur. Xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish, muammoli kreditlar darajasini pasaytirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish bank tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro moliya bozorlariga integratsiyani kuchaytirish esa iqtisodiyotga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi. Ushbu islohotlar O'zbekiston bank tizimining barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

#### ***Adabiyotlar/Литература/Reference:***

*Burxanov A. va Xudoyqulov X. (2023) "O'zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvining dolzarb masalalari", Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, oktabr, 10-son.*

*Farmon, (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020- yildagi "2020 - 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-sonli farmoni. Manba:lex.uz.*

*Hisobot (2024) O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, "Yillik hisobot - 2023", T-2024.*

*Meliyev J., (2024) "Banklarda likvidlilik muammosi va uni hal qilish yo'llari", Moliya va bank ishi jurnali.*

*Sattorov O., (2016) Актуальные вопросы обеспечения устойчивости банковской системы Республики Узбекистан//Банковское дело. – №9. – С. 25.*

*Thorsten Beck, Asli Demirgüç-Kunt va Ross Levine, (2018) "Financial Structure and Economic Growth: A Cross-Country Comparison", "Journal of Financial Economics".*